

**2018 yilning yanvar – noyabr oylarida
QURILISH ISHLARI**


(dastlabki ma'lumotlar)

Toshkent viloyatida qurilish - pudrat ishlari umumiylajmi

2018 YIL YANVAR - NOYABR UCHUN


2018 yilning yanvar – noyabr oyi davomida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 1 965,5 mlrd. so'm miqdorida baholandi va mos ravishda o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 foizni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida sohalar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar – noyabr uchun (mlrd. so'm)






Hududlar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar-noyabr uchun (mlrd. so'm)



■ 2018 yil yanvar-noyabr

Viloyat bo'yicha tuman va shaharlar kesimida Zangiota tumanida 259,8 mlrd. so'mlik, Olmaliq shahri 194,8 mlrd. so'mlik, Yuqorichirchiq tumani 198,7 mlrd. so'mlik, Qibray tumani 209,4 mlrd. so'mlik qurilish – pudrat ishlari amalga oshirilib eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishildi.


Hududlar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar-noyabr %



Viloyat bo'yicha tuman va shaharlar kesimida o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarga Olmaliq shahar 220,2 foizga, Chirchiq shahar 115,7 foizga, Angren shahar 103,7 foizga, Zangiota tumani 116,0 foizga erishdi.




Qurilish – pudrat ishlar xajmi sektorlar bo‘yicha




1. Yirik korxonalar tomonidan;

Toshkent viloyatida yanvar - noyabr oyi davomida yirik qurilish pudratchi korxonalar tomonidan 502,1 mld. soʻmlik qurilish – pudrat ishlari bajarilib, oʻtgan yilga nisbatan 173,1 foizni jami qurilish – pudrat ishlar hajmidagi ulushi 25,5 foizni tashkil qildi. Bundan koʻrinib turibdiki yirik qurilish korxonalari tomonidan qurilish ishlari xajmi oʻtgan yilga nisbatan 73,1 punktga koʻpayishi viloyatning umumiy qurilish ishlari xajmida oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatdi.




2. Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha;

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarda oʻtkazilgan monitoring kuzatuv natijalariga koʻra ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2018 yil yanvar – noyabr oylarida 680,2 mlrd.soʻmga yaqin miqdorida baholandi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsish surʼati 96,2 foizni jami qurilish – pudrat ishlar hajmidagi ulushi esa 34,6 foizni tashkil etdi.



3. Qurilish pudrat ishlar hajmi jami norasmiy sektor bo‘yicha:

2018 yilning yanvar – noyabr oylari davomida jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish – pudrat ishlari hajmi 783,1 mld. so‘m miqdorida baholandi va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 96,0 foizni, jami qurilish – pudrat ishlar hajmidagi ulushi esa 39,9 foizni tashkil etdi.



*Investitsiya va qurilish
statistika bo‘limi
boshligi o‘rinbosari
B. Djavliev
Tel; 230-86-70, 71*